

**Qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan  
qo‘llab-quvvatlash choralari monitoring qilish va ulardan foydalanish  
samaradorligini baholash  
METODOLOGIYASI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Metodologiya qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo‘llab-quvvatlash choralari monitoring qilish va ulardan foydalanish samaradorligini baholash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Metodologiyada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**vakolatli organ** — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi;

**subsidiya** – qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, xarajatlarning bir qismini qoplash hamda tarmoqni rivojlantirishni rag‘batlantirish maqsadida davlat budjeti mablag‘lari hisobidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ajratiladigan moliyaviy mablag‘;

**subsidiyalarni ajratishga vakolatli organ** – O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrar sohada to‘lovlar agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik);

**asossiz olingan subsidiya** – subsidiya olish uchun soxta ma’lumot va hujjatlar taqdim etish orqali yoki mazkur subsidiyani qonunchilikda belgilanganidan boshqa yo‘nalishlarda foydalanish uchun olish;

**maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalar** – qonunchilik hujjatlari hamda tuzilgan shartnomalarga (bitimlarga) muvofiq taqdim etilgan subsidiyani belgilanganidan boshqa maqsadlar uchun sarflash;

**monitoring qilish** – tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalarni belgilangan tartibda to‘lanishini kuzatish hamda tahlil qilish jarayoni;

**ijtimoiy samaradorlik** – aholi bandligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi sohasi va chorvachilik tarmog‘i uchun malakali kadrlarni tayyorlashni hamda sohaga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni jalb etishni qo‘llab-quvvatlash ta’sirini baholash;

**iqtisodiy samaradorlik** – qishloq xo‘jaligi subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalarni ularning faoliyatiga (ishlab chiqarish hajmining o‘sishi va mahsulotlar sotilishi, tannarx pasayishi, mahsulot turlari kengayishi, daromadning oshishi va boshqalar) ta’sirini baholash;

**samaradorlik mezoni** – qishloq xo‘jaligi subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalar natijasida erishiladigan ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar;

**samaradorlikni baholash** – subsidiyalardan belgilangan maqsadlarda

va samarali foydalanish natijasida erishilgan iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni tegishli samaradorlik ko'rsatkichlari asosida tahlil qilish hamda subsidiyalarning natijadorlik darajasini aniqlash;

**samaradorlikni baholash** – qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalarni O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda vakolatli organ tomonidan samaradorlikni baholashni ushbu Nizom talablari asosida baholash;

**samaradorlikni yakuniy baholash** — qishloq xo'jaligi subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalarni samaradorlikni baholash natijalari asosida vakolatli organ tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-dekabrda 784-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etilishini monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash hamda asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida baholash;

3. Subsiya ajratishda Agentlik O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan erishiladigan samaradorlik mezonlarini belgilaydi.

4. Agentlik Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28 apreldagi 206-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomlar asosida belgilangan yo'nalishlardagi subsidiyalarni tanlab oladi va ushbu yo'nalishlarda qishloq xo'jaligi subyektlariga ajratilgan subsidiyalar natijasida erishilgan samaradorlik mezonlarini baholash ishlarini amalga oshiradi.

## **2-bob. Agentlikning samaradorlikni baholashdagi asosiy vazifasi va majburiyatlari**

5. Agentlik samaradorlikni baholashda quyidagilar uchun mas'ul va javobgar hisoblanadi:

subsidiyalarni qonunchilik hujjatlariga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28 apreldagi 206-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomlar talablariga muvofiq ajratilganligini baholash;

ushbu Metodologiyaga muvofiq tadbirkorlik subyektlari tomonidan erishiladigan samaradorlik mezonlarini belgilash.

6. Agrar sohada to'lovlar agentligining asosiy majburiyatlari quyidagilardan iborat:

subsidiyalarni tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilangan barcha talab va shartlarga mos kelgan qishloq xo'jaligi subyektlariga ajratilishini tashkil etish;

ajratilgan subsiya hisobiga qishloq xo'jaligi subyektlari tomonidan erishilgan samaradorlik mezonlarini monitoring qilish;

asossiz olingan, maqsadsiz foydalanilgan subsidiyani O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28 apreldagi 206-son qarori

ilovalarida ko'rsatib o'tilgan tegishli vakolatli idoralar bilan birga davlat budjetiga qaytarish choralarini ko'rish;

samaradorligi past va samarasiz subsidiyaning taqdim etilishini to'xtatish yoki bekor qilish yuzasidan takliflar tayyorlash;

har yili 1 iyulgacha qishloq xo'jaligi subyektlariga ajratilgan subsidiyalar natijasida erishilgan samaradorlikni baholash natijalari asosida hisobot tayyorlash hamda vakolatli organga taqdim etish.

### **3-bob. Subsidiya oluvchi qishloq xo'jaligi subyektlarining majburiyatlari**

7. Subsidiya oluvchi qishloq xo'jaligi subyektlarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

subsidiyadan maqsadli va samarali foydalanish;

subsidiya olish uchun arizaga ilova qilinadigan ma'lumotlar va taqdim qilinadigan hujjatlar to'g'riligi va haqqoniyligini ta'minlash;

taqdim etilgan subsidiyalarni belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari aniqlanganda, olingan mablag'larni o'rnatilgan tartibda hamda belgilangan muddatlarda davlat budjetiga to'liq qaytarish;

ajratilgan subsidiya mablag'laridan foydalanish jarayonida qonunchilikda belgilangan me'yorlarga to'liq amal qilishi shart.

### **4-bob. Samaradorlik mezonlarini monitoring qilish tartibi**

8. Agentlik qishloq xo'jaligi subyektlariga ajratilgan subsidiyaning samaradorligini baholash ishlarini hududlardan tanlab olingan subyektlar tomonidan erishilgan samaradorlik mezonlari natijalarini monitoring qilish orqali amalga oshiradi.

Bunda, Agentlik tomonidan yil davomida ajratilgan har bir subsidiya yo'nalishlari bo'yicha 5 nafardan kam bo'lmagan (kichik, o'rta, yirik) qishloq xo'jaligi subyektlari tanlab olinadi va erishilgan samaradorlik mezonlari tahlil qilinadi.

9. Qishloq xo'jaligi subyektlari tomonidan kiritiladigan hamda proaktiv usulda shakllanadigan arizalarga subsidiya mablag'larini ajratish jarayonlari "Agroportal" AT hamda "subsidiya.mf.uz" (ins-subsidiya.imv.uz) orqali monitoring qilinadi.

10. Qishloq xo'jaligi subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etishga asos bo'luvchi ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'riligi va haqqoniyligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28 apreldagi 206-son qarori bilan tasdiqlangan ilovalarda ko'rsatib o'tilgan manfaatdor vazirlik va idoralarning ma'lumotlari hamda idoralararo axborot almashinuvi orqali tasdiqlanadi.

## **5-bob. Samaradorlikni baholash mezonlari**

11. Agentlik ajratiladigan qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanadi:

**a) iqtisodiy samaradorlik:**

qishloq xo'jaligi mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi;

yangi texnologiyalar, uskunalar va ishlab chiqarish quvvatlarini (ishlab chiqarish korxonalari uchun) miqdoriy ko'rsatkichlarda joriy etish;

qishloq xo'jaligi subyektlari daromadining oshishi;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxining pasayishi;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport hajmini oshishi.

**b) ijtimoiy samaradorlik:**

yaratilgan yangi ish o'rinlari soni;

malakali kadrlar ulushini oshirish;

12. Agentlik tomonidan quyidagi qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligi mezonlari monitoring qilinadi va baholash amalga oshiriladi. Xususan,

**-Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarining bir qismini qoplash bo'yicha:**

*1. Mahsulot yetishtirishda suv sarfining qisqarib borishi.*

*2. Ekinlar hosildorligini oshib borishi.*

*3. Mineral o'g'itlar sarfining qisqarishi.*

**- Xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkilar uchun subsidiya ajratish bo'yicha:**

*1. Go'sht ishlab chiqarish hajmining oshib borishi.*

*2. Sut ishlab chiqarish hajmining oshib borishi.*

*3. Nasldor qoramol, qo'y va echkilar bosh sonining ko'payib borishi.*

**- Qishloq xo'jaligi texnikasi va lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregat qiymatining bir qismini qoplash bo'yicha:**

*1. Mahsulot yetishtirishdagi YoMM sarfining kamayishi.*

*2. Lazerli tekislangan maydonlarda suvi sarfining kamayishi.*

*3. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining kamayishi.*

**- Paxta va boshqali don, kartoshka, meva va uzum ekin maydonlarini sug'orish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari uskunalarini sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash bo'yicha:**

1. *Sug'orish jarayonida elektr energiyasi xarajatlarining kamayishi.*

2. *Ishlab chiqarilgan elektr energiyasini elektr tarmog'iga sotish hisobiga qo'shimcha daromad olinishi.*

**- Meva, uzum va limon ko'chatlarini xarid qilish hamda ko'chatlarni shpalerga ko'tarish xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risida:**

1. *sertifikatlangan ko'chatlar ekilgandan keyin 3-4 yildan boshlab hosil olish va hosildorlikni oshishi.*

2. *Ko'chatlarni shpalerga ko'tarish hisobiga hosildorlikning oshishi.*

3. *Yetishtirilgan mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlarini ortib borishi.*

**- Issiqxona xo'jaliklariga issiqxonalarni ko'mir qozoni va elektr energiyasida isitish qozonini xarid qilish xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risida:**

1. *Yoqilg'i-energetika resurslari sarfining kamayishi (tejalishi).*

2. *Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining kamayishi.*

**- Oziq-ovqat sanoati korxonalarida xalqaro sifatni boshqarish tizimini joriy qilish, laboratoriyalarga zarur bo'lgan uskuna va jihozlarni hamda qishloq xo'jaligi korxonalariga uzumni (mayiz) quritish va qadoqlash liniyalarini xarid qilish xarajatlarning bir qismini qoplash tartibi to'g'risida:**

1. *Xalqaro sifat sertifikatlarini olgan korxonalar sonining oshishi.*

2. *Mahsulot ishlab chiqarish va qayta ishlash hajmini oshishi;*

3. *Mahsulotlar eksport qilish hajmining ortib borishi.*

4. *Yangi ish o'rinlarining yaratilishi.*

**- Qoraqalpog'iston Respublikasi sovitkichli sig'imler uyushmasiga a'zo subyektlarga sovitkichli sig'implarni qurish va/yoki jihozlash tartibi to'g'risida:**

1. *Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun qo'shimcha quvvatlarning yaratilishi.*

2. *Yangi doimiy ish o'rinlarining yaratilishi.*

3. *Mahsulotlarni saqlash orqali, iste'molchilarga realizatsiya qilish hisobiga qo'shimcha daromad olish.*

**- Issiqxona xo'jaliklariga xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislari hamda mahalliy oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risida:**

1. *Sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi.*

2. *Mahsulotlarni eksport qilish hajmining ortib borishi.*

3. *Mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishdan olinadigan daromadning oshishi.*

**- Qoraqalpog‘iston Respublikasining paxta, boshqoli don va sholi yetishtiruvchi hamda Xorazm viloyatidagi sholi yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi subyektlariga lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregat bilan yer tekislash xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to‘g‘risida:**

*1. Mahsulot yetishtirishdagi suv sarfining kamayishi.*

*2. Ekinlar hosildorligining ortib borishi.*

**- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda biologik himoya usulini qo‘llashni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida:**

*1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining kamayishi.*

*2. Biologik himoya vositalarini qo‘llash hisobiga ekinlar hosildorligining oshishi.*

**- Suv inshootlarini qurish xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to‘g‘risida:**

*1. Qo‘shimcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining oshishi.*

*2. Yaylovlarda chorva mollarining suv ta‘minoti darajasining yaxshilanishi.*

*3. Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv ta‘minoti darajasi yaxshilangan yer maydonlari hajmining oshishi.*

**- Qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan yerlarni foydalanishga kiritishda irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bilan bog‘liq xarajatlarning bir qismini qoplash tartibi to‘g‘risida:**

*1. Qo‘shimcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.*

*2. Qo‘shimcha ish o‘rinlarining yaratilishi.*

*3. Qayta foydalanishga kiritilgan yerlarning suv ta‘minotini yaxshilanishi.*

**- Parrandachilik xo‘jaliklariga faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilardan go‘sht yo‘nalishida nasldor bir kunlik jo‘jalar xaridi uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risida:**

*1. Parranda go‘shini ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.*

*2. Parrandachilik xo‘jaliklarining daromad hajmining oshishi.*

## **6-bob. Samaradorlik mezonlarini baholash tartibi**

13. Samaradorlik qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etilgunga qadar o‘tgan uch yillik davrni qo‘llab-quvvatlash choralarining amal qilish muddatiga (agar qo‘llab-quvvatlash chorasi joriy etilganiga uch yil bo‘lmagan bo‘lsa, o‘tgan yilga nisbatan) taqqoslash orqali baholanadi

14. Samaradorlik mezonlarini baholashda quyidagi manbalardan foydalanish mumkin:

- zarur hollarda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy, soliq hisobotlari;
- tegishli tashkilotlar yoki statistika idoralari ma'lumotlari;
- qo'llab-quvvatlash choralari natijalari yuzasidan tadbirkorlik subyekti tomonidan taqdim etilgan hamda joylarga chiqqan holda olingan ma'lumotlar.

15. Agentlik zarur hollarda subsidiya samaradorligini baholash maqsadida qo'shimcha o'rganishlar o'tkazish, suhbatlar tashkil etish hamda foto va boshqa tasdiqlovchi materiallardan foydalanish huquqiga ega.

16. Samaradorlik darajasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$S=M/SM\times 100$$

bunda:

- **S** — subsidiya samaradorligi darajasi (foizda);
- **M** — erishilgan samaradorlik mezonlari soni;
- **SM** — mazkur subsidiya turi uchun belgilangan jami samaradorlik mezonlari soni.

**Samaradorlik darajasi quyidagi mezon asosida baholanadi:**

| Samaradorlik darajasi | Baho                            |
|-----------------------|---------------------------------|
| 76-100 %              | Samarali ( <b>Yashil</b> )      |
| 50–75 %               | O'rta samarali ( <b>Sariq</b> ) |
| 50 %dan kam           | Past samarali ( <b>Qizil</b> )  |

Bunda, **2 ta** samaradorlik mezoni belgilangan subsidiya yo'nalishlarida **bitta mezunga** erishilgan taqdirda subsidiya "**o'rta samarali**" deb hisoblanadi.

17. Agentlik tomonidan har bir yo'nalish bo'yicha tanlab olingan qishloq xo'jaligi subyektlarining samaradorlik mezonlari tahlil qilinganda har bir yo'nalishda 50 foizdan ortiq holatda subyektlarda samaradorlik darajasi **past samarali** qayd etilsa, ushbu yo'nalishdagi subsidiyani bekor qilish yuzasidan taklif tayyorlashga asos bo'ladi.

18. Baholash natijalari asosida subsidiyalar **3 toifaga** bo'linadi:

1-toifa ("**Yashil**") – **samarali** deb topilgan subsidiya yo'nalishlari. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha moliyalashtirish hajmini oshirish yoki kengaytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

2-toifa ("**Sariq**") – **o'rta samarali** deb topilgan subsidiya yo'nalishlari. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha subsidiya ajratish shartlari va mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

3-toifa ("**Qizil**") – **past samarali** deb topilgan subsidiya yo'nalishlari. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha subsidiya turini qayta ko'rib chiqish, bekor qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

19. Samaradorlikni baholash natijalari kelgusi yil uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari saqlab qolish, takomillashtirish yoki qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunda yakuniy takliflar Agentlik tomonidan shakllantirilib, Qishloq xo'jaligi vazirligiga taqdim etiladi.

20. Anomal ob-havo sharoiti, suv tanqisligi, tabiiy ofatlar yoki fors-major holatlari natijasida samaradorlik mezonlariga erishilmagan taqdirda mazkur holatlar alohida o'rganiladi va ushbu subsidiya yo'nalishi bo'yicha qaror har bir holatning xususiyatidan kelib chiqib qabul qilinadi.

21. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda har bir yo'nalishdagi subsidiyalarning samaradorlik mezonlarini tahlil qilib, samaradorligini baholaydi va baholash natijalari bo'yicha hisobotni har yili 1-iyulga qadar vakolatli organga taqdim etadi.

Vakolatli organ har yili 1-avgustga qadar qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etuvchi tashkilot tomonidan baholash natijalariga muvofiq taqdim etilgan hisobotlar asosida qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligini baholash yakunlari bo'yicha axborotni Hisob palatasi bilan kelishgan holda Respublika komissiyasiga kiritadi.

## **7-bob. Asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish tartibi**

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28 apreldagi 206-son qarori bilan tasdiqlangan ilovalarda ko'rsatib o'tilgan tegishli vakolatli idoralar Agentlik ajratgan subsidiyalardan samarali va maqsadli foydalanish bo'yicha belgilangan muddatlarda monitoring o'tkazadi, aniqlangan holatlar bo'yicha subyektlarga ogohlantirish xatlari beradi hamda Agentlikka ma'lumot taqdim etadi.

Bunda, Agentlik monitoring natijasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari doirasida ajratilgan mablag'lar (subsidiyalar)dan maqsadsiz yoki noqonuniy foydalanish holatlari aniqlanganda, amaldagi qonunchilikka muvofiq choralar ko'rish va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga ma'lumotlar kiritadi.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28 apreldagi 206-son qaroriga asosan, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi subsidiyalar to'g'ri tayinlanishi va ajratilishini nazorat qiladi.



## **8-bob. Qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalanish natijadorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiq e'lon qilib borish**

24. Agentlik subsidiyalar samaradorligini baholash natijalari bo'yicha ma'lumotlarni rasmiy veb-sahifalari hamda ochiq axborot tizimlari orqali e'lon qilib boradi.

## **9-bob. Yakunlovchi qoidalar**

25. Qo'llab-quvvatlash choralarini oluvchi subyektlar qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilotga o'z vaqtida ma'lumotlarni taqdim etmasligi yoki ishonchsiz va yolg'on ma'lumotlarni taqdim etganligi uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

26. Qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etadigan tashkilot o'ziga berilgan vakolatlarni amalga oshirishi munosabati bilan ma'lum bo'lgan tijorat siri yoki qonunchilik bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

27. Metodologiyani qo'llash jarayonida aniqlangan tizimli muammolar va baholash natijalari asosida uni takomillashtirish hamda unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.